IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680

E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

TATAR ADABIYOTIDA MUSA JALILNING TUTGAN O‘RNI

Solijonova Sevaraxon

Farg‘ona davlat universiteti,

o‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya

Volga bo‘yida yashovchi xalqlar tarixi,tatar adabiyotiga qisqacha t‘xtalib o‘tiladi, XX asr tatar adabiyoti.

Kalit so‘zlar

Vo‘lga bo‘yi davlatlari, tatar adabiyoti, Qozon shahri, XX asrda adabiyot, Abdulla To‘qay, Ismoilbek Gaspriniskiy, Musa Jalil.

Vo‘lga bo'yi hududida yashovchi xalqlar boshqird,udmurt, tatar,chuvash,mordva, komi xalqlari hisoblanadi. Ushbu xalqlardan boshqird,chuvash, tatar xalaqlari qadimgi turkiy xalaqlardandir.Shu boisdan, xalq og‘zaki ijodining syujeti, obrazlari va an‘analari boshqa turkiy xalaqlarnikiga o‘xshash. Qozon shahri esa eng qadimgi shaharlardan bo‘lib,Volga bo‘yi xalqlarining adabiy va madaniy markazi sanaladi. Tatar adabiyoti ham o‘zbek adabiyoti kabi arab va fors kalassikari ta‘sirida rivojlandi, buning natijasida tatar adabiyotida ham sharqonalok kuchaydi. XIX asrga qadar bo‘lgan davrda poeziya yetakchi o‘rinni egalladi.Proza va dramaturgiya nisbatan kechroq shakllandi.Tatar adabiyotidagi nasr esa o‘zbek adabiyotidagi sa‘j usulidagi asarlarga o‘xshashdir.

XX asrda tatar adabiyoti gullab yashnadi.Bu davrning ko‘zga ko‘ringan vakillari Abdulla To‘qay, Ismoilbek Gaspriniskiy,Musa Jalillardir.Abdulla To‘qay (1886-1913) Qozon gubernasiga qarashli Qushlauch qishlog‘ida tug‘ilgan. Urals shahrida madrasa ta‘limini olgan. Uning "Ozodlik haqida", "Tekinxo‘rlarga", " Davlat dumasi" kabi xalq manfaatini kuylash,ozodlik uchun kurashga da‘vat etish g‘oyasi kuchli bo‘lgan she‘rlari xalq orasida qisqa vaqt mobaynida shuhrat qozongan.

Rusiya jadidchilik harakatining jurnalistlik faoliyati va badiiy nasri bilan ko‘zga ko‘ringan rahnamosi Ismoilbek Gaspriniskiy (1851-1914). Ziyoli oilada tarbiya topgan Gaspriniskiy millatning o‘zligini ko‘rsatadigan xususiyatlardan biri til va maorifdir deb e‘tirof qiladi. Bu ikkisi bo‘lmasa,millat mustaqil bo‘la olmaydi. Gaspriniskiy 1905-yilda yozgan maqolalarining birida millatning asosi ikkita:tavxidi til (til birligi) va tadxidi din (din birligi) degan edi. Darhaqiqat, tilning o‘rni beqiyos: "Insonning oti bo‘lmasa,opzi ham yo‘q demakdir,shuningdek tili bo‘lmagan insongam soqovdir" dega g‘oyani ilgari suradi. "Til birligi masalasi bizning hayotimizda hayot-mamaot masalasidir va biz bu masalada bir qadam ham orqaga chekinmaymiz, biz uchun orqaga chekinmoqqa yo‘l yo‘q, Yashasin millat"- deb yozadi Ismoilbek Gaspriniskiy 1906-yil 18-dekabrda.

Tatar adabiyoti deganimzda beixtiyor barchamizning ko‘z o‘ngimizda Musa Jalil siymosi gavdalanishi hech birimizga sir emas. Tatar adabiyotining yana bir ko‘zga ko‘ringan namoyondasi Musa Mustafievich Jalilov 1919-yil Otenburg gubernasiga qarashli Mustafino qishlog‘ida dehqon oilasida tug‘ilgan.Husayniya madrasasida tahsil olgan. Oilada oltinchi farzand bo‘lgan Musa Jalilning urush boshlanishiga qadar o‘nta she‘riy to‘plami nashr etilgan. Urush boahlanganidan keyin

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

ikkinchi kun harbiy komisarlikka kelib siyosiy komissarlik yo‘llanmasini olib, harbiy komisar bo‘lib ishlaydi.1942-yil qamalni tark etib,yaralanib 10 nafar quroldoshi bilan asirga olinadi. Uning asirlik va qamoqxonada yozgan 115 ta she‘r yozgan.Keyinchalik kameradpshlarining xabar berishiga ko‘ra Musa Jalilning ikkita she‘r yozadigan daftari bo‘lib,ularga 93 ta she'r yozilgan. Urush yakunidan so‘ng birinchi daftarni Nig‘mat Turegulov,ikkinchi daftarni belgiyalik kameradoshi Andre Timmermans tegishli joylarga topshirishgan.Shoirning she‘rlari "Maobit daftari" to‘plamiga yig‘ilgan.Musa Jalil she‘riyatida qahramonlik, yorga,onaga,vatanga bo‘lgan sevgi motivlari yetakchilik qiladi. Uning "Do‘stimga"deb nomlangan she‘ri ham urush davrida yozilgan she‘rlar sirasidan bo‘lib, she‘rda shoirning do‘stiga murojaati tasvirlangan. She‘rning tub mohiyatini umr qisqarsa-da, besamar ketmaganligi, "ushbu o‘lim" ijodkorga bitmas,mangu umr keltirganlik mazmuni yotadi.

Urush yakunidan so‘ng boshqa ijodkorlar singari Musa Jalil nomi ham oqlanadi. Musa Jalil nomi kitob va darsliklarga qaytadan kiritiladi. 1957-yil Konstantin Simonov "Maobit daftari"dagi oltita she‘rni birinchi marta "Literatirnaya gazeta"da nashr ettiradi.1967-yil Lenin mukofoti laurenti,1968-yil Maobit daftarchasi"filmi suratga olinadi. 1966-yil haykaltaroah V.Tsegal tomonidan Qozon Kremli devorlari yonida Musa Jalil haykali qad ko‘taradi. 1994-yil granit devorda Musa Jalilning qatl qilingan o‘n nafar o‘rtoqlarining yuzlarini aks ettiruvchi barelef ochiladi. Shoirning qabri qayerda joylashganligi noma‘lum boishiag qaramay har yil 15- fevral tavallud sanasida va 25-avgust qatl kunida haykal poyiga gullar qopyish bilan mittinglar o‘tkaziladi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz kerakki, Tatar adabiyotida Musa Jalilning o‘rni beqiyosdor. U sodda, ravon she‘riyati bilan nafaqat tatar balki o‘zbek adabiyotida ham muqim o‘ringa ega. Uning qahramonlik ,sevgi va‘fo madh etgan she'rlari asrlar osha bizdan keyingi avlodlarni ham bebahra qoldirmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begali Qosimov va boshqalar "Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti" Toshkent "Ma‘naviyat" 2004.

2. Ziyouz.com ijtimoiy sahifasi.

3. Sayidolimov, J. B. O. G. L. (2023). AGIOGRAFIK OBRAZLARNING

MAZMUN-MOHIYATIDAGI EVRILISHLAR. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(3), 1318-1322.